

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MAXBUSLARGA JAZONI IJRO
ETISH CHOG'IDA VA OZODLIKKA CHIQQANDAN SO'NG
BERILADIGAN IMTIYOZLAR.**

Shuhrat Irnazarov

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Jinoyat va fuqarolik protsessi kafedrasi o'qituvchisi

Xurramov Dilshod Eshpo'lat o'g'li

Subonov Sarvar Faxriddin o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 4-kurs talabalari

Annostatsiya: Mazkur maqola O'zbekistondagi maxbuslarga jazoni ijro etish vaqtida va ozodlikka chiqqandan keying vaqtda beriladigan imtiyozlar tasnifi va ularning afzalliklari va tendensiyalari istiqbollari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mahkum, imtiyoz, jinoyat-ijroiya huquqi, ozodlikdan mahrum qilish, moddiy yordam, E-probatsiya tizimi.

Kirish

Mahkumlarga nisbatan imtiyozlar - bu jazoni ijro etish muassasalarida intizomli, xulqi yaxshi va belgilangan tartiblarga rioya qilgan mahkumlarga qo'shimcha huquq va yengilliklar berilishi tushuniladi. Ushbu imtiyozlar mahkumni ijobiy xulqqa undash, qayta tarbiyalash va jamiyatga moslashuvini osonlashtirishga qaratilgan.

Jazoni ijro etish tizimi nafaqat jamiyat xavfsizligini ta'minlash, balki mahkumlarni qayta tarbiyalash, ijtimoiy hayotga moslashtirish va ularda huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan murakkab tizimdir. Ushbu jarayonda mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozlar muhim o'rin tutadi. Imtiyozlar jazoni yengillashtirish emas, balki mahkumning xulqi, intizomi va ijtimoiy moslashuv darajasiga qarab qo'llaniladigan rag'batlantiruvchi chora sifatida namoyon bo'ladi.

Qonunchilikda mahkumlarga beriladigan imtiyozlar asoslariga quyudagilarni kiritsak bo'ladi, jumladan Jinoayt ijroiya kodeksining 79¹-moddasida ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning sayr qilishi ko'rsatilgan bo'lib, jazoni umumiy, qattiq tartibli koloniyalar, tarbiya koloniyalari qabul bo'linmalarining kameralarida, shuningdek maxsus tartibli koloniyalarning kameralarida o'tayotgan ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlar, agar ular ochiq havoda ishlayotgan bo'lmasa, har kuni muddati ikki soatlik sayr qilish huquqiga ega.

Sayr qilishning muddati jazoni ijro etish koloniyalarining, tergov hibsonalari va turmalarning intizomiy bo'linmalarida saqlanayotgan mahkumlar uchun ushbu Kodeksning 109 va 127-moddalari bilan, jazoni turmalarda o'tayotgan mahkumlar uchun esa 123-moddasi bilan belgilanadi.

Mahkumlarning sayr qilishi maxsus jihozlangan sayr qilish hovlilarida kunduzgi vaqtda o'tkaziladi. Sayr qilish, mahkum jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini buzgan taqdirda, muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Jinoyat ijroiya kodeksining 79²-moddasida ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ga murojaatlar qutisi orqali murojaat qilishi belgilangan.

Jazoni ijro etish muassasalarining har bir turar joy sektorida, sanoat zonalarida, qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan binolarda mahkumlar murojaatlarni qoldirishi uchun qulay bo'lgan joyda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ga murojaatlar qutisi, tarbiya koloniyalarida esa qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)ga murojaatlar qutisi o'rnatiladi (bundan buyon matnda Ombudsman qutisi deb yuritiladi). Ombudsman qutisi tegishincha faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) yoki uning Devoni xodimlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) yoki uning kotibiyati xodimlari tomonidan ochiladi.

Ombudsman qutisini o'rnatish, undan foydalanish va u orqali murojaatlar yuborish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Jinoyat ijroiya kodeksining 81-moddasida mahkumlarning kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rishi, radioeshittirishlar eshitishi tartibi ko'rsatib o'tilgan. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar ishdan bo'sh soatlarda, tungi dam olish uchun ajratilgan vaqtdan tashqari, kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rish, radio eshittirishlar eshitish huquqiga ega.

O'zbekistonda endi mahkumlar 1 ta kitob o'qish orqali o'tayotgan jazo muddatini 3 kunga qisqartirishi mumkin bo'ladi. Buning uchun mahkum o'qigan kitobi bo'yicha imtihon topshirishi kerak. Tegishli qonun deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida mahkumlarni axloqan tuzatish ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Qayd etilishicha, qonunchilikka xorijiy tajribani inobatga olgan holda, mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat

turmushi qoidalarini va an'analariga hurmat munosabatini rag'batlantirishga qaratilgan normalarni kiritish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ushbu loyiha bilan Jinoyat kodeksiga kitob o'qishga jalb qilish orqali mahkumlarni axloqan tuzatish bo'yicha yangi 74¹-modda kiritilmoqda. Unga ko'ra, faqat jazo muddatini to'liq o'tashi lozim bo'lgan mahkumlarga nisbatan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha 1 ta kitob o'qigan va belgilangan tartibda imtihon topshirgan taqdirda jazosini 3 kunga qisqartirish nazarda tutildi.

Shuningdek, ushbu kodeksning 73, 74-moddalari asosida esa jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki yengilrog'i bilan almashtirish masalasini hal etish vaqtida inobatga olinishi belgilanyapti.

Bundan tashqari, o'zini o'zi tarbiyalash yo'li bilan tuzalish yo'liga o'tganligini tasdiqlovchi harakatlarni bajarishi munosabati bilan jazo muddatini qisqartirishni protsessual tartiblari hamda zarur bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlashni belgilash bo'yicha Jinoyat-protsessual kodeksi 536¹-moddasi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi 80¹-moddasi bilan to'ldirish nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasi birinchi o'qishda konseptual jihatdan qabul qilingan. Ma'lum qilinishicha, O'zbekistondagi 49 ta jazoni ijro etish muassasalarining barchasida kutubxonalar mavjud bo'lib, ularda 230 mingdan ortiq kitob, jumladan 44,7 mingdan ortiq xorijiy kitoblar, Brayl alifbosida yozilgan 209 ta kitob to'plangan.

Bunda yiliga ko'pi bilan 10 ta kitob o'qish mumkinligi belgilandi. Mahkumlar o'qiydigan adabiyotlar ro'yxati Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tasdiqlanadi. Bu kabi choralar mahkumlarning axloqan tuzalish yo'liga o'tishiga xizmat qilishi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risida" 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-son Farmoni bilan ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari miqdoridagi bir martalik nafaqa (keyingi o'rinlarda — nafaqa) pulini uni tayinlashning amaldagi tartibi saqlab qolingan holda, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali to'lash belgilangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

- a) nafaqa tayinlash uchun murojaat qilish, murojaatlarni ko'rib chiqish va nafaqa tayinlash "E-probatsiya" axborot tizimi orqali amalga oshiriladi;
- b) nafaqa tuman (shahar) probatsiya bo'linmalari tomonidan tayinlanadi hamda mahalliy budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan to'lanadi;
- v) tayinlangan nafaqa "E-probatsiya" axborot tizimi orqali taqdim etilgan ma'lumotlar asosida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Yagona reyestr" AT) orqali to'lanadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarning murojaatiga asosan "Yagona reyestr" AT orqali elektron yuborilgan to'lov qaydnomalariga muvofiq

nafaqa tijorat banki tomonidan naqd pul shaklida to'lanadi yoki ularda mavjud bank kartalariga o'tkazib beriladi.

Tavsiya va takliflar

Bugungi kunda O'zbekistonda jazo ijro etish tizimini insonparvarlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bir qator dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayrim jazoni ijro etish muassasalarida moddiy-texnik sharoitlarning yetarli emasligi, mahbuslarning psixologik va ijtimoiy rehabilitatsiya xizmatlaridan to'liq foydalana olmasligi, ozodlikka chiqqan shaxslarning bandlik va uy-joy masalalarida qiynalayotgani dolzarb muammolar sifatida qolmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish uchun jazoni ijro etish muassasalarida sharoitlarni yanada yaxshilash, psixologik va kasbiy rehabilitatsiya dasturlarini kengaytirish, ozodlikka chiqqan shaxslar bilan ishlovchi maxsus markazlar tarmog'ini ko'paytirish va ularni ish bilan ta'minlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, jamiyatda sobiq mahbuslarga nisbatan ijtimoiy stigma va salbiy qarashlarni kamaytirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham dolzarb vazifadir.

Umuman olganda, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va taklif etilgan choralarni amaliyotga joriy etish jazo ijro etish tizimining samaradorligini oshirib, mahbuslarning ham, ozodlikka chiqqan fuqarolarning jamiyatga muvaffaqiyatli qayta moslashuviga keng imkon yaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda mahbuslarga nisbatan jazo ijro etish tizimini insonparvarlashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ozodlikka chiqqandan keyingi ijtimoiy moslashuvini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Jazoni o'tash jarayonidagi yengilliklar, ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlari, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish huquqi, shuningdek, rag'batlantiruvchi normalarning qo'llanishi mahkumlarning qonunlarga hurmatini oshirishga xizmat qiladi.

Ozodlikka chiqqan shaxslar uchun yaratilayotgan imtiyozlar — rehabilitatsiya markazlari, hujjatlarni tiklab berish, kasbga qayta o'qitish, mehnatga joylashtirish bo'yicha ko'mak va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash — ularning jamiyatga qayta integratsiyasini yengillashtirib, takror jinoyatchilikning oldini olishga yordam bermoqda.

Shu tariqa, jazo muddatini o'tayotgan shaxslar va ozodlikka chiqqan fuqarolarga yaratilayotgan sharoitlar mamlakatda inson qadrini ulug'lash, adolat va huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashning amaliy ifodasi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu yo'nalishdagi islohotlarning izchil davom ettirilishi jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.07.2025 yildagi 444-son
2. Jinoyat ijroiya kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 31.08.2023
4. Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 17-iyuldagi 543-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida